

KORXONALARDA BOSHQARUVNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ilmiy rahbar: Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Qayumov Abbosbek Pirmuhammad O'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Management fakulteti

MNP-61 guruh talabasi

Elektron pochta manzili: abbos.qayumov1115@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14625719>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda korxonalarining raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun boshqaruvning roli to'g'risida. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini oshirish, korxona faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish va rentabillikni yaxshilashga yordam berishi haqida malumot beriladi.

Kalit so'zlar: Strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv ishlab chiqarish boshqaruv, marketing va sotuvlar, inson resurslari boshqaruvi, doimiy yaxshilanish.

KIRISH

Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

1. Strategik rejalashtirish.
2. Moliyaviy boshqaruv.
3. Ishlab chiqarish boshqaruv.
4. Marketing va sotuvlar boshqaruvi.
5. Inson resurslari boshqaruvi.

Strategik rejalashtirish bu korxona kelajagini shakllantirish va muvoffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan jarayon. U korxonaning maqsadlari va vazifalarini aniqlash, ularga erishish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqish va ushbu strategiyalarni amalga oshirish uchun aniq rejalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Strategik rejalashtirish. Strategik rejalashtirish jarayonining eng muhim qisimlaridan biri bu vaziyatni tahlil qilish. Ichki tahlil: korxonaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash. Tashqi tahlil: bozorning imkoniyatlari va tahdlarni aniqlash. SWOT tahlil: korxonaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini birlashtirib tahlil qilish. So'ngra maqsadlarni belgilab olish. Korxonaning uzoq muddatli maqsadlari va vazifalarini aniqlash ko'zda tutilgan. Maqsadlarni o'lchovli, erishiladigan, dolzarb, real va muddatli qilib belgilash. (SMART). Ushbu rejalashtirishning afzalliklari. korxonaning kelajagini aniqlash va yo'naltirish, raqobatbardoshlikni oshirish, resurslarni samarali ishlatish, xavflarni kamaytirish, korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash shular jumlasidandir. Moliyaviy boshqaruv. Ushbu boshqaruv tizimi korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish va rentabillikni yaxshilashga qaratilgan. Bunda korxonaning moliyaviy resurslarini taqsimlash va xarajatlarni nazorat qilish uchun budjetlarni yaratish. Daromadlarni boshqarish, moliyaviy tahlil ya'ni korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilish, samaradorlikni baholash yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISIM

Boshqaruv (menejmenti)ning mohiyati va tizimi. Umumiy ko'rinishda boshqaruv ikkita obyektning maqsadiga qaratilgan o'zaro hamkorlikdan iborat bo'lib, bunda ulardan biri boshqaruv subyekti o'rnida, boshqasi esa boshqaruv obekti o'rnida bo'ladi. Bu o'zaro hamkorlik quyidagilar xosdir.

Boshqaruv subyekti boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish (boshqaruv buyruqlari) ya'ni impulsar jo'natadi, ular boshqaruv obyektiga qanday faoliyat yuritishi haqidagi axborotga ega bo'ldilar.

Boshqaruv obyektiga ushbu impulsar ya'ni (buyruqlar)ni oladi va ularga muvofiq harakat qiladi. Shu o'rinda ko'zga ko'ringan tadqiqotchi P.Druker (AQSH) hisoblaydiki, boshqaruv bu tashkil qilinmagan to'dani samarali maqsadga yo'naltiruvchi va ishlab chiqarish guruhiga aylantiruvchi faoliyatning asosiy turidir. Amerikalik olim K.Killen boshqaruvni "ishni boshqalarning qo'li bilan bajarish" sifatida belgilagan.

Agar boshqaruv maqsadlari subyektning boshqaruv faoliyati jarayonida ko'zlangan maqsadiga mos kelsa u samarali boshqaruvga qaratilgan bo'ladi. Boshqaruv subyektining boshqaruvni amalga oshirish imkoniyati, birinchidan tashkiliy-texnik jihatlar bilan xodimlarga aloqa va axborotlarni uzatishning kerakli kanallari, boshqaruvning talab qilishidagi texnikasi va h.k mavjudligi bilan, ikkinchidan, boshqaruv subyektida boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatishning, uning yordamida buyruqlarni bajarishga undovchi dastaklarning mavjudligi bilan, ya'ni boshqaruv obyektning boshqaruv buyruqlarini bajarishga imkoniyati va tayyorligi bilan asoslanadi.

Moliyaviy boshqaruv strategiyasi bu ma'lum bir natijaga erishish uchun obyektga ta'sir etishning maqsadli uslublari va yo'llari yig'indisidir. Boshqaruv jarayoni inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan moliyaviy sohasiga ham taalluqlidir. Boshqarish, insonlarning ongli ravishdagi maqsadga yo'naltirilgan faoliyati sifatida, jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. Shu bilan birgalikda, boshqarishga davlat tegishli boshqarish tuzilmalari orqali katta ta'sir o'tkazadi. Boshqarish obyekti – turli shakldagi moliyaviy munosabatlar (korxona moliyasi, sug'urta, davlat moliyasi) turidir. Boshqarish subyekti – moliyani boshqarishni amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilmalar, institutlar, korxonalarning moliya xizmati, davlatning moliya organlari va davlat soliq xizmati hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruv faoliyatining muhim sohasi moliyani boshqarish hisoblanadi. Uni ma'lum bir uslub va tamoyillarga hamda turli rag'batlantirish va jazo (sanksiya)larga tayanib maxsus apparat amalga oshiradi. Boshqaruv faoliyati – oldinga qo'yilgan masalalarni tezroq hal qilish maqsadida mavjud usullar orasidan eng samaraligini tanlash yoki qo'llanilayotgan usullardan oqilona foydalanish uchun shart – sharoitlar yaratishdan iboratdir. Har qanday boshqaruv tizimiga xos bo'lgani kabi, moliyani boshqarishda ham obyektlar va subyektlar mavjud bo'ladi. Moliyani boshqarishning obyekti bo'lib turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi; subyektlari esa, boshqarishni amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilmalar hisoblanadi. Moliyani boshqarishni amalga oshiruvchi barcha tashkiliy tuzilmalar yig'indisi moliyaviy apparat deyiladi.

Bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qilingan o'zgarishlar, olib borilayotgan islohotlarning tub mazmunmohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bajarayotgan barcha sa'y-harakatlar respublikamiz obodligi, iqtisodiyotni yuqori darajaga olib chiqish va xalqimiz turmush sharoitining yanada

yaxshilanishiga, inson manfaatlariga qaratilganligini yaqqol his etamiz. Chunki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida izchil o'zgarishlar yuz bermoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirildi.

"Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingan 2018- yilda mamlakatimizda iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Qabul qilingan 2018- yilgi Davlat dasturini ro'yobga chiqarish doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard AQSH dollariga teng 76 mingta loyiha amalga oshirildi.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlariga muvofiq 400 da ortiq va mahallalarda munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirilgan.

"Har bir oila- tadbirkor" va "Yoshlar- kelajagimiz" dasturlari doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 600 dan ortiq biznes loyihalar amalga oshirildi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va mehnatga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirishga alohida etibor qaratildi hamda bu aholining real daromadlarini 2017- yilga nisbatan 12 foizga oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonning ko'plab universitetlarida talabalar uchun ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti buyicha urgatishning maqsadi kuchli raqobat sharoitida ishlab chiqarish korxonalari boshkaruv tizimini samarali boshkarish orkali harajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishga erishish, doimiy ravishda iste'molchilar talabiga yo'naltirilganlikka, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashuvi va mahsulotning yukori sifati hamda xizmat ko'rsatishga erishishdir.

Marketing- korxonaning tovarlar ishlab chiqarish va sotishini tashkil etish hamda boshqarish shakli. (inglizchada: market- „bozor“, „bozordagi harakat“, „faoliyat „marketing“) „marketing“ atamasi iste'molga XIX-asrning 60-yillarida Makkovern tomonidan kiritilgan. Marketing nazariy konsepsiya va tijorat faoliyatining o'ziga xos hodisasi tarzida XX-asr boshlarida AQSHda ilk bor qo'llandi. Ishlab chiqarish va kapitalning yuksak darajada to'planishi, iqtisodiyot tarmoqlarida monopoliyalarning hukmronligining, xalqaro bozorda keskin raqobatning vujudga kelishi mahsulot sotish muammosini obyektiv tarzda birinchi o'ringa chiqardi. 1908-yilda AQSHda marketing muammolarini o'rganadigan birinchi ixtisoslashgan firma paydo bo'ldi. 1911-yilda esa o'sha davrdagi bir qator yirik kompaniyalar tijorat tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan dastlabki bo'limlarni ochdi. Kompaniyalar huzurida bozorni o'rganish, reklama, haridorlarga xizmat ko'rsatish va boshqarishning boshqa vazifalari bilan shug'ullanadigan "marketing" bo'limlari ta'sis etila boshlandi. 1931-yilda Amerika marketing jamiyati, 1937-yilda esa Amerika marketing milliy uyushmasi tuzildi. XX-asrning 50-60-yillarida xalqaro marketing federatsiyasi, jamoatchilik fikri hamda marketing bo'yicha Yevropa jamiyati va Yevropa marketing akademiyasi kabi xalqaro marketing tashkilotlari tuzildi. Marketing zamonaviy kasblardan biri deyiladi.

Bozorni bilish (iste'molchilarni har tomonlama o'rganish, ularning did va istaklarini bilish), bozorga moslashish, bozorga ta'sir o'tkazish marketingning asosiy tamoyillaridir. Shuningdek, marketingni qo'llash bilan bog'liq masalalarni kompleks ravishda o'rganish; mahsulot assortimentini rejalashtirish; talabni va savdoga rag'bat beradigan tadbirlarni shakllantirish; savdo va taqsimot; boshqarish va nazorat qilish marketing faoliyatining mazmunini belgilaydi. Mutaxassislar marketingning 9 ta asosiy vazifasini ko'rsatib o'tadilar: rejalashtirish va mahsulotni yaratish; mahsulotning navi va standartlarini belgilash; mahsulot haridi va uni guruhlashtirish; sotish; omborga joylash; transport xizmati; marketing faoliyatini moliyalash; xatarlar va bozorga oid axborotlar to'plash.

Bugungi kunda korxonalar amaliyotida marketing dasturlarini samarali qo'llash ahamiyati ortib bormoqda. Bu ularning vakolatini kengayishi hamda o'zlarining iqtisodiy ahvoli uchun javobgarliklari darajasining oshganligi bilan bog'liqdir. Zamonaviy boshqaruvning sifati korxonalar samaradorligini belgilab beradi. Shu sababdan korxonalarga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb qilish hozirgi davrdagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda korxonalarning ko'pchiligi o'z taraqqiyotining konsepsiyasini, strategiyasini hamda dasturini ishlab chiqishi zarur. Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiya va dasturlarga bog'liq bo'ladi. Agar korxonaning marketing dasturi bo'lmasa, u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o'rin egallashi uchun imkon bermaydi. Korxonaning kelajakdagi barqarorligini baholash uchun rivojlanish tendensiyasini (trendini) ifodalovchi kompleks integral ko'rsatkich ishlatiladi; chuqurroq tahlil qilish va zaxiralarni aniqlash uchun ko'rsatkichlarning kengaytirilgan tizimidan foydalaniladi. Shunday qilib, korxonaning kelajakdagi barqarorligini baholash - korxona faoliyatining turli tomonlarini baholashni nazarda tutadi, buning ustiga, bunday baholash dinamiklikda va makonda amalga oshiriladi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham "tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan¹ edi. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi ishlab chiqarish korxonalari innovasion faoliyatini zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishni taqazo etadi

Hayotimizningbarcha sohalarida inson resurslarini boshqarishda, yangicha fikrlaydigan, qiyindamlarda mas'uliyatnio'z zimmasigaola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirish hamda ular tomonidanxodimlarni boshqarishda zamonoviyusullardan foydalanishni eng dolzarb masalalaridan biridir. Ayni paytda mamlakatimizdaolib borilayotgan ijtimoiy muammolarni echa oladigan, avvalo, uni teran anglaydigan, islohotlar jarayonida aruv bo'g'inlariga ko'proq jalb etish asosiy va bosh masala hisoblanadi.Ko'rsatilgan muammolarni hal etish uchun "Inson resurslarini boshqarish" fanini o'qish va o'rganish maqsadga muvofiqdir.


Personalni boshqarish Bu- konsepsiya 1930 yillarda azariyasi hisoblanadi. Bunda inson rasmiy rol mansab orqali ko'rib chiqilib, boshqarish ma'muriy mexanizmlar (tamoyillar, usullar, vakolatlar, funksiyalar) orqali amalga oshiriladi. Insonresurslarini boshqarishInson mansab sifatida emas (struktura elementi sifatida emas) to'ldirilmaydigan resurs –uchta

asosiy komponentdan (mehnat funksiyasi, ijtimoiy munosabatlar, ishchining ahvoli) iborat tashkilotning ijtimoiy elementi sifatida ko'riladi. Ushbu konsepsiyaning asoschisi bo'lib Yaponiyaning yetakchilimlari hisoblanadi.

Xulosa: Boshqaruv tizimi, boshqaruv subyektining boshqaruv obyekti bilan o'zaro aloqasiga asoslanadi. Samarali boshqaruv, aniq maqsadga yo'naltirilgan va tizimli faoliyat orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy boshqaruv strategiyasi resurslarni maqsadli boshqarish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Marketing korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va mahsulotlarni samarali boshqarishni ta'minlaydi. Inson resurslarini boshqarish esa yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, tashkilotning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, boshqaruv tizimining samaradorligi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

References:

1. <https://arxiv.uz/uz/>
2. M.G'. UMARXODJAYEVA, I.K. YAXYAYEVA (ISHLAB CHIQRISH MENEJMENTI)
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zR Qonunchilik hujjatlari to'plami. 2017 yil. 6-son, 70-modda.
4. <https://ebook.tsue.uz/public> (inson resurslarini boshqarish)



INNOVATIVE
ACADEMY